



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 48 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliev Axror Sodiqovich	



QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH



Sheraliyev Axror Sodiqovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Sifat bo'limi boshlig'i, I.f.f.d, dotsent v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada agrar tarmoq xo'jaliklarida mahsulot tannarxini kamaytirish, uning raqobatbardoshligi hamda tashqi va ichki bozorda sotish hajmini oshirishdagi faoliyat samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish, rivojlanish strategiyasi, mahsulot yetishtiruvchilardan shartnoma asosida sifatli mahsulotlar qabul qilish, ularni tozalash, sarxillash, qadoqlash va o'z muddatida eksportga jo'natish ishlarini tashkil qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, agrar tarmoq, mahsulot, bozor, strategiya, eksport, samaradorlik, diversifikatsiyalash.

Abstract: In this matter, the improvement of the mechanism for evaluating the effectiveness of activities in reducing the cost of products in agricultural sector enterprises, increasing its competitiveness and increasing the volume of sales in the foreign and domestic markets, development strategy, receiving quality products from producers on the basis of a contract, cleaning, peeling, molding and The organization of export shipments in terms of z was considered.

Key words: Agriculture, agrarian sector, product, market, strategy, export, efficiency, diversification.

Аннотация: В данном вопросе необходимо снизить себестоимость продукции аграрных предприятий, усовершенствовать механизм оценки эффективности их деятельности, повышения их конкурентоспособности и объема продаж на внешнем и внутреннем рынке, стратегии развития, получения качественная продукция от производителей на основе контракта, очистка, была своевременно продумана организация упаковки, формовки и отгрузки на экспорт.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, аграрный сектор, продукт, рынок, стратегия, экспорт, эффективность, диверсификация.

KIRISH

Hozirgi kunga qadar qishloq xo'jaligining rivojlanishi eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Chunki qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligi, mamlakatimizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, nafaqat qishloq aholisi, balki mamlakatimiz aholisining moddiy farovonligini oshirish bevosita bebaho boyligimiz bo'lgan yer unumdorligi hamda uning sifatini muntazam yaxshilab borish bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion faoliyat samaradorligiga bog'liq. Innovatsiyalarni o'zlashtirish natijasida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish bazasi texnologik, texnik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan yangilanib boradi. Bu esa o'z navbatida, O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyasini kuchaytiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat agrar tarmog'ini yanada rivojlantirish hamda mazkur tarmoqda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish muhim hisoblanadi. Albatta, agrar tarmoqda yanada ko'plab sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va tarmoq rivojlanishiga bir necha omillar ta'sir etadi. Shulardan eng muhimlaridan biri raqobatbardoshlik omilidir. Bu omilning o'rni beqiyos ekanligi sir emas. Xususan, agrar tarmoq ishlab



chiqarishida asosiy xo'jaliklarning ustuvor rivojlanishi va ularda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi raqobatbardoshlikni oshirish muammolarini o'rganish hamda tadqiq etish zarurdir. Ushbu muammoning echimi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan tartibga solishning kompleks usullarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llashga bog'liqdir.

Davlat siyosati darajasida ham bu masala alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" tasdiqlandi. Ushbu hujjatda agrar tarmoqni modernizatsiya qilish, mahsulot tannarxini kamaytirish, eksport salohiyatini oshirish va marketing mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Vaholanki, resurslar cheklanganligi sharoitida ulardan samarali foydalanish agrar tarmoq xo'jaliklarini rivojlantirishning asosiy omili bo'lib, ularda raqobatbardoshlikni oshirish hamda sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish zarur.

Shuningdek, agrar tarmoq xo'jaliklarida xatarlar bilan bog'liq masalalar mamlakatning ustuvor ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, raqobatbardoshlikni ta'minlashda mavjud holatni inobatga olgan holda bozor tamoyillariga mos me'yoriy-uslubiy ta'minotni yanada kengaytirish talab etiladi.

Agrar xo'jaliklar raqobatbardoshligini baholashning asosiy mezonlaridan biri tadbirkorlik darajasidir. Tadbirkorlik darajasi esa, bevosita qishloq xo'jaligi tovarlari bozorida shakllangan talab-taklif, narx va tadbirkorlik daromadlariga bog'liq. Bu holat agrar xo'jaliklarning ixtisoslashuv darajasi va tovarlilik ko'rsatkichlari orqali ularning raqobatbardoshlik darajasini belgilaydi.

Agrar xo'jaliklarning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, avvalo, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning tabiiy-iqtisodiy sharoiti, ixtisoslashuvi, faoliyat yo'nalishlari va natijalari bo'yicha tabaqalashuvi hamda moslashuviga bog'liqdir. Shuningdek, turli tadbirkorlik tizimlarining ichki va tashqi imkoniyatlaridan foydalanish darajasi ham ob'ektiv jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, agrar xo'jaliklarning rivojlanish strategiyasini mavjud real sharoitdan kelib chiqqan holda belgilash maqsadga muvofiqdir.

Bu jarayon agrar xo'jaliklarni rivojlantirish strategiyasini aniqlashda mezon sifatida xizmat qiladi. Hozirgi iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida, xo'jaliklarning qaysi xususiyatlariga mos kelishiga qarab strategiyani tanlash nafaqat nazariy, balki real sharoitni to'liq hisobga olish imkonini beradi. Shu sababli agrar xo'jaliklarning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishida ushbu omil muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mehnat sig'imi yuqori bo'lgan va raqobat past sharoitdagi hududlarda faoliyat yuritayotgan xo'jaliklar uchun diversifikatsiya strategiyasini tanlash maqsadga muvofiqdir.

Tadbirkorlik turidagi agrar xo'jaliklar uchun esa kooperatsiya rivojlanish strategiyasi bilan mintaqaviy o'sish strategiyasini uyg'unlashtirishni tavsiya etish mumkin. Mintaqaviy strategiyani tanlashda ular ma'lum bir qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirishga ixtisoslashib, asosiy e'tiborni shu mahsulot sifatini oshirishga qaratishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish masalasi bo'yicha milliy va xorijiy adabiyotlarda turli ilmiy qarashlar shakllangan. O'zbekistonlik olimlardan A. Vahobov, Sh. Egamov, N. Tursunov kabi tadqiqotchilar agrar sohaning rivojlanishi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va eksport salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydilar. Ularning ilmiy izlanishlarida mahsulot tannarxini kamaytirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va marketing mexanizmlarini takomillashtirish agrar islohotlarning muhim yo'nalishlari sifatida ko'rsatiladi.

Xalqaro tajribalarda ham agrar tarmoqda innovatsion marketing yondashuvlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, M. Porter raqobat ustunligini ta'minlashda mahsulotni differensiyalash va qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish muhimligini alohida ta'kidlaydi. J. Stiglitz esa qishloq xo'jaligida davlatning tartibga solish mexanizmlari innovatsiyalarni joriy etishda zarur kafolat sifatida xizmat qilishini qayd etadi.

B. Qosimov va X. Jalilovlarning tadqiqotlarida qishloq xo'jaligida klaster tizimi, kooperatsiya va diversifikatsiyalash orqali mahsulotlar qiymat zanjirini uzluksiz tashkil etish zarurligi ta'kidlangan. Ularning fikriga ko'ra, shartnoma asosida mahsulot xarid qilish, uni qayta ishlash va eksportga yo'naltirish mexanizmlari nafaqat ishlab chiqaruvchilarning daromadini, balki butun tarmoqning barqarorligini oshiradi.

Xorijiy adabiyotlarda esa innovatsion marketing vositalaridan – raqamli texnologiyalar, agrodron, aqlli sug'orish tizimlari hamda "smart farming" konsepsiyasidan foydalanish agrar tarmoq samaradorligini keskin oshirishi ta'kidlanadi (FAO, World Bank hisobotlari). Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida fermer xo'jaliklari mahsulotni yetishtirishdan tortib, uning bozorga chiqarilishigacha bo'lgan barcha bosqichlarni marketing strategiyalari bilan uyg'unlashtirgan holda olib boradi.



Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun uch asosiy yo'nalish dolzarbdir: birinchidan, mahsulot tannarxini kamaytirish orqali ichki bozorda raqobatni kuchaytirish; ikkinchidan, eksport salohiyatini oshirish orqali tashqi bozorlarga faol integratsiyalash; uchinchidan, marketing mexanizmlarini innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Agrar tarmoq xo'jaliklarning rivojlanish strategiyasini amalga oshirish, avvalambor ma'lum darajada resurslarni talab etadi. SHuning uchun ham agrar tarmoq xo'jaliklarining hozirgi resurslar bilan taminlanganlik darajasi, kredit olish imkoniyati va investitsiyalash ularning tanlagan rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligida davom etayotgan tarkibiy o'zgarishlar jarayonida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakllari etib, fermer va dehqon xo'jaliklari tanlab olindi. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ularning barqaror va samarali rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatlar iqtisodiyoti turi va rivojlanish darajasiga qarab, asosan, xom-ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashgan iqtisodiyot, industrial iqtisodiyot, postindustrial iqtisodiyot, aralash iqtisodiyot va innovatsion iqtisodiyot yoki bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarga bo'linadi.

Innovatsion iqtisodiyot iqtisodiyotning eng yuqori rivojlangan turidir hisoblanadi va u uchun bilimli jamiyat xosdir. Hozirgi kunda fan -texnika yutuqlarini keng joriy etish va undan samarali foydalanish uchun turli mexanizmlar va institutsional tuzilmalar, ya'ni milliy innovatsion tizim shakllanmoqda. Qishloq xo'jaligini barqarorlashtirishda qishloq xo'jaligini texnologik jihatdan modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlardan biridir. Qishloq xo'jaligining mashinasozlik korxonalari faoliyatini boshqarishni yanada takomillashtirish, ularning samaradorligi va rentabelligini oshirish, sohada ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, agrosanoat kompleksi uchun zamonaviy, unumdorligi yuqori, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh texnika va uskunalar ishlab chiqarishni tashkil etishga qaratilgan yagona texnika siyosatini amalga oshirish zarur.

1-jadval. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari (2020–2024 yillar)

Yil	Qishloq xo'jaligi YAIMdagi ulushi (%)	Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar joriy etilgan korxonalar (%)	Agrotexnika bilan ta'minlanganlik (%)	Qishloq xo'jaligida innovatsiyalar ulushi YAIMda (%)	Mahsulot eksporti (mlrd. AQSH dollari)	Ishlab chiqarish hajmi o'sishi (%)
2020	25,7	8,3	62	1,1	1,6	2,2
2021	26,0	10,5	65	1,4	1,9	3,4
2022	25,5	12,8	68	1,6	2,2	3,9
2023	25,1	15,4	71	1,8	2,6	4,3
2024	24,8	18,2	75	2,1	2,9	4,7

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillarda qishloq xo'jaligining YAIMdagi ulushi 25,7 foizdan 24,8 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, bu holat sanoat va xizmatlar sektorining tezroq o'sishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etayotgan xo'jaliklar ulushi 8,3 foizdan 18,2 foizga oshgani agrar sohada modernizatsiya jarayonlari jadallashayotganidan dalolat beradi. Agrotexnika bilan ta'minlanganlik 62 foizdan 75 foizga ko'tarilib, hosildorlik va ishlab chiqarish samaradorligi oshgan. Innovatsiyalar ulushi YAIM tarkibida past bo'lsa-da (2,1 foiz), ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mahsulot eksporti 1,6 mlrd. dollardan 2,9 mlrd. dollarga oshgani va ishlab chiqarish hajmining yiliga 4–5 foizga barqaror o'sib borishi agrar tarmoqning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirayotganini ko'rsatadi.

Mamlakat agrar tarmoq rivojlanishiga salbiy ta'sirining oldini olish va yumshatishda qishloq xo'jaligi, xo'jalik yuritish sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishning quyidagi chora-tadbirlarini amalga oshirish bugungikunda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi:



bozor narxlari kon'yunkturasi talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish tadbirlarini joriy etish, agrotexnologik jarayonlarni ratsionalizatsiyalash hisobiga mahsulot tannarxini arzonlashtirish;

agrar tarmoq xo'jaliklarida mahsulot tannarxini kamaytirish, uning raqobatbardoshligi hamda tashqi va ichki bozorda sotish hajmini oshirishdagi faoliyati samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish;

mavsum davomida mahsulot etishtiruvchilardan shartnoma asosida sifatli mahsulotlar qabul qilish, ularni tozalash, sarxillash, qoliplash va o'zmuddatlarida eksportga jo'natish ishlarini tashkil qilish va hk.

Hozirgi davrda mamlakatimiz agrar tarmoq xo'jaliklari faoliyatini barqaror rivojlantirishda quyidagi tadbirlarga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiqdir:

agrar tarmoq xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlari ishini yanada rivojlantirish;

aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlari bilan arzon narxlarda va uzluksiz ravishda ta'minlashni tashkil etish maqsadida meva-sabzavot hamda uzum mahsulotlari va kartoshkani agrar tarmoq xo'jaliklaridan maqbul narxlarda sotib oladigan, saqlaydigan, tashiydigan, ichki iste'mol bozorlariga realizatsiya qiladigan, eksportini amalga oshiradigan hamda moliyalashtiradigan ixtisoslashgan kompaniyalar tashkil qilish va ularni etarli miqdordagi aylanma mablag'lar hamda zarur moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlash;

bugungi kunda jahon miqyosida kuzatilayotgan oziq-ovqat muammosi salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishdagi optimallashtirish, mavjud ishlab chiqilgan tavsiyalardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat.

Bugungi kunda O'zbekistonda innovatsion jarayonlarni chuqurlashtirishga va innovatsiya bazasini mustahkamlash uchun barcha zarur ijtimoiy-iqtisodiy asoslar mavjud. Biroq agrar sohani innovatsion rivojlanish yo'lga o'tkazish, yoki boshqacha aytganda, innovatsion loyihalarni bir, hatto bir necha fermer xo'jaliklari miqyosida ham amalga oshirishda muammolar mavjud, chunki: birinchidan, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sub'ektlar hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot ishlariga buyurtma berish hamda tadqiqotlarni moliyalashtirishda ishtirokining sustligi; ikkinchidan, ilg'or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishda tadqiqot olib borish va ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishni ham xo'jalik sub'ekti o'zi amalga oshira olmaydi; uchinchidan, yangi texnologiya, yangi navlardan foydalanish uchun qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilarning etarli darajada bilimlarga ega emasligi, ular olimlar va mutaxassislar xizmatidan foydalanishlari zarur, shuningdek, mahsulotni qayta ishlash va sotishda ham fermerlar ma'lum darajadagi qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar; to'rtinchidan, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari olimlari tomonidan tayyorlangan innovatsion ishlanmalarga ishlab chiqaruvchilarning talabi etarli darajada emasligi, ular o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud emas; beshinchidan, ayrim qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning mas'uliyatsizligi.

Jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hamda mamlakatlararo integratsiya sharoitida respublikada qisqa vaqt ichida qishloq xo'jaligi tarmog'ini va qishloqni, shu bilan birga qishloq infratuzilmasini, yangi innovatsion rivojlanish yo'lga o'tishi zarur. Bu yo'l orqali zamonaviy texnik- texnologik asosida qishloqning mavqeini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'lga o'tish hozirgi kundagi ustuvor vazifalardan biri sifatida baholanib kelinmoqda. Tahlillarga ko'ra, O'zbekiston agrar sektorida innovatsiyalar hajmi jami yalpi ichki mahsulot hajmida 1-2 %ni tashkil etadi, qishloq infratuzilmasi tarmog'ida esa bu ko'rsatkich undan ham kam, vaholanki ushbu ko'rsatkich boshqa rivojlangan mamlakatlarda 50- 60% dan ko'proqni tashkil etadi.

Ishlab chiqarishda zamonaviy texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi quyidagi imkoniyatlarni keltirib chiqaradi:

jahon miqesidagi talablarga javob beruvchi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi;

mahsulot tannarxi ahamiyatli darajada pasaytirilishi hisobiga korxonaning moliyaviy natijalari yuqori bo'lib, imkoniyatlari kengayishi;

xomashë va resurslar tejallishi; atrof- muhitga salbiy ta'sir qisqarishi va h.k.

Agar mazkur texnika va texnologiyalar innovatsion tavsifga ega, ya'ni ilgari amalda qo'llanilmagan ishlanma va g'oyalarga asoslangan bo'lsa, u holda ulardan foydalanishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati yanada yuqoriroq bo'ladi. Innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi ushbu sohada qo'llanib kelinayotgan texnologiyalarga nisbatan yuqoriroq samaraga erishish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro qishloq xo'jalik maxsulotlari bozori juda murakkab va serqirra ijtimoiy-iqtisodiy tizim hisoblanadi. Undagi munosabatlarga ham maxsulotlarning ko'pligi va o'ziga xosligi, ham barcha davlatlarning manfaatlari mavjudligi katta ta'sir ko'rsatadi. Oziq ovqat maxsulotlari bozoriga kirib borish va o'z o'rnini egallash milliy iqtisodiyotning rivojlanish olillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.



Qishloq xo'jaligida eksport imkoniyatiri yuqori bo'lgan mava-sabzavot maxsulotlari eksportida zamonaviy sotish texnologiyalarni qo'llash. Masalan, agrofranchayzing texnologiyasidan foydalanishda bozordagi mahalliy firmalar yoki yirik sotish kompaniyalarda O'zbekiston maxsulotlarining brendidan foydalanish orqali eksport imkoniyatlarini oshirish mumkin.

Yuqoridagi takliflarning qo'llanishi O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasining eksport imkoniyatlarini kengaytiradi deb xisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabr «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi «Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5718-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 noyabrdagi «Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4525-son Qarori.
4. Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta'minlashni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.05.2017 yildagi PF-5057-son Farmoni.
5. «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-4478-son, 22.10.2012 y.
6. Olimjonov O. va boshqalar. Fermerlik faoliyatining asoslari va ishlab chiqarishni tashkil etish. — T.: Sharq, 2003, -270 b.
7. Salimov B. va boshqalar. Fermer va dehqon xo'jaliklari iqtisodi. —T.:TDIU, 2004, 124 b.
8. Umurzoqov U.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. — T.: IQTISOD- MOLIYA, 2007. — 226 b.
9. Musaeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik «STAR-SEL» MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi. Samarqand-2023
10. Musaeva Sh.A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi O'quv qo'llanma «Mahorat» nashriyoti, Samarqand — 2022
11. Musaeva Sh.A., Usmonova D.I. Innovatsion marketing «TURON EDITION» 2021 yil uchun o'quv qo'llanma.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>